



INNOVATIVE
WORLD

ISSN: 3030-3079

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal

2026/5



www.innoworld.net
+998 33 5668868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 4, Issue 5
2026

Journal has been listed in different indexings



The official website of the journal:
www.innoworld.net

Uzbekistan-2026



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI

Alixonova Muharramxon Oyatilla qizi
Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashtirish va iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. Kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini oshirish va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashdagi roli yoritilgan. Maqolada ushbu sohani rivojlantirishning istiqboldagi yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish omillari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Kichik biznes, tadbirkorlik faoliyati, iqtisodiy o'sish, bandlik, globallashtirish, iqtisodiy integratsiya, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy islohotlar, biznes muhiti, iqtisodiy barqarorlik.

Kirish. Jahonda globallashtirish va iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, aholi bandligini oshirish va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

Ayniqsa, so'nggi yillarda kichik biznes sub'ektlarining iqtisodiyotdagi ulushi ortib bormoqda va ular iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy kuchlardan biriga aylanmoqda. Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes sub'ektlari dunyo iqtisodiyotida ish o'rinlarining taxminan 60–70 foizini ta'minlaydi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasidagi umumiy ishlab chiqarish qiymatining 40–50 foizi [1] aynan kichik tadbirkorlar hissasiga to'g'ri keladi. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasida mavjud hamda istiqboldagi imkoniyatlardan unumli foydalanish va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bu sohani rivojlantirishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuni o'rganishda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Xususan, Joseph Schumpeter tadbirkorlikni iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholab, innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning muhim omili deb ta'kidlagan. Peter Drucker esa tadbirkorlikni mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va boshqaruv innovatsiyalarini joriy etish jarayoni sifatida izohlaydi. Frank Knight tadbirkorlik faoliyatida tavakkalchilik va noaniqlik omillarining ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Mahalliy olimlardan M.R. Boltaboyev va M.K. Pardayevlar kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rni, uning moslashuvchanligi va iqtisodiy barqarorlikni

ta'minlashdagi rolini keng yoritganlar. Shuningdek, Jahon banki ma'lumotlari kichik biznesning bandlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi ulushi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Metodologiya. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil, taqqoslash, statistik kuzatish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini aniqlashda mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi hamda ularning qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot davomida O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar va iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari asosida kichik biznesning bandlik, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi ulushi baholandi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv hamda iqtisodiy jarayonlarni kompleks baholash tamoyillari tashkil etdi. Olingan natijalar asosida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Muhokama va analiz. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish masalasiga katta ahamiyat qaratildi. Davlat tomonidan ushbu sohani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan huquqiy, institutsional va moliyaviy baza yaratildi, tegishli me'yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar izchil takomillashtirib borilmoqda.

Xususan, so'nggi yillarda qabul qilingan qator muhim huquqiy hujjatlar, "Tadbirkorlik faoliyati erkinliklari kafolatlari to'g'risida"gi Qonun, "Bank tizimini yanada erkinlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Farmoni, Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika Kengashi faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan qarorlar, Mikrokreditlash tizimini rivojlantirishga oid yangi tartiblar mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va huquqiy muhit yaratilishiga zamin yaratdi.

Shu bilan birga, kichik biznes sub'ektlarini litsenziyalash, ro'yxatdan o'tkazish, hisobga olish, hisobot topshirish va soliqqa tortish jarayonlari soddalashtirildi. Bu chora-tadbirlar tadbirkorlik muhitining yanada yaxshilanishiga va biznes faoliyatining faollashishiga olib keldi.

Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida ko'plab yangi kichik korxonalar tashkil etilgan bo'lsa-da, bozor iqtisodiyoti talablariga moslasha olmagan va raqobat muhitida o'z o'rnini topa olmagan korxonalarining faoliyati tugatilib bormoqda.

Bunday jarayon bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy holat hisoblanadi va bu faqat O'zbekistonda emas, balki rivojlangan mamlakatlar amaliyotida ham kuzatiladi. Masalan, Buyuk Britaniyada yangidan tashkil etilgan har uchta korxonaning bir qismi 2-3 yildan so'ng o'z faoliyatini tugatadi, 5-6 yil o'tgach esa faqat 30-35 foizi o'z faoliyatini davom ettirgan holda qoladi. Germaniyada har yili taxminan 40 mingta yangi kichik biznes sub'ektlari tashkil topsa, shu davrda ularning 20-25 mingtasi faoliyatini to'xtatadi. Bu holatning asosiy sabablari uangi

texnologiyalarni keng joriy etishdagi qiyinchiliklar, moliyaviy va resurs bazasining cheklanganligi, ozordagi kuchli raqobat va yuqori xavf-xatar darajasi sifatida quyidagilar ko‘rsatilmoqda. Ushbu omillar kichik biznes sub’ektlari uchun samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni iqtisodiy barqarorlikka erishishga yo‘naltirish zarurligini yanada oshirmoqda. Boshqaruv samaradorligini ta‘minlash esa nafaqat ichki bozorda raqobatdoshlikni oshirishga, balki yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o‘rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘lidagi to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirish maqsadida:

- tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to‘sqinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari javobgarligini jinoiy javobgarlikka tortish darajasigacha oshirish;

- xususiy mulkni himoya qilish kafolatini kuchaytirish, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladigan ma‘muriy va jinoyat qonunchiligini liberallashtirish jarayonini davom ettirish;

- barcha turdagi ro‘yxatdan o‘tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog‘liq tartibtaomillarni yanada soddalashtirish;

- xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitni yaxshilash talab etiladi.

Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiy taraqqiyotning muhim ustuni bo‘lib, ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy diversifikatsiyani ta‘minlash va aholi daromadlarini oshirishda katta o‘rin tutadi. Iqtisodiy adabiyotlarda kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ayrim jihatlari bilan farq qiladi.

Tadbirkorlik — bu foyda olish maqsadida resurslarni samarali taqsimlash va yangi bozor imkoniyatlaridan foydalanish faoliyatidir. Tadbirkorlik jarayonida shaxslar va biznes sub’ektlari tavakkalchilikni o‘z zimmasiga olib, innovatsion g‘oyalarni amaliyotga joriy etadilar.

Kichik biznes esa — bu iqtisodiy faoliyatning shakli bo‘lib, muayyan miqdorda xodimlar, cheklangan kapital va mahalliy bozor imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladigan tadbirkorlik turidir.

Kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotda innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, raqobat muhitini yaxshilaydi va mamlakatning eksport salohiyatini kengaytiradi.

1-jadval

Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalarining taqqoslanishi

Belgilar	Tadbirkorlik	Kichik biznes
----------	--------------	---------------

Asosiy maqsad	Innovatsiya va foyda olish	Mahalliy bozorda barqaror faoliyat yuritish
Risk darajasi	Yuqori	O‘rtacha
Faoliyat ko‘lami	Har xil, katta va kichik masshtabda	Asosan mahalliy va o‘rtacha ko‘lamda
Kapital va resurs talablari	Har xil, katta sarmoya talab qilishi mumkin	Kam sarmoya bilan faoliyat yuritish
Ish o‘rinlari yaratish	Yangi imkoniyatlarni ochish orqali	Barqaror ish o‘rinlari ta‘minlash
Bozor strategiyasi	Yangi bozor va texnologiyalarni o‘zlashtirish	Mavjud bozorda raqobatbardosh faoliyat
Tashkiliy shakl	Yakka tartibdagi tadbirkorlik, MChJ, AJ va boshqalar	Ko‘p hollarda MChJ va xususiy korxonalar

Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy faoliyatning turli jihatlarini qamrab oladi. (1-jadval) Samarali boshqarilgan kichik biznes sub’ektlari mamlakat iqtisodiyotida barqarorlik va rivojlanish uchun asosiy drayver hisoblanadi. Shuning uchun kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval. Tadbirkorlik va kichik biznes tushunchasiga oid berilgan ta’riflarining tahlili

t/r	Olimlar	Berilgan ta’riflar
1	Joseph Schumpeter	Tadbirkorlik - bu iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, innovatsiyalar va yangi kombinatsiyalar yaratish orqali amalga oshiriladi.
2	Peter Drucker	Tadbirkorlik - mavjud resurslardan innovatsion usulda foydalanish va imkoniyatlarni amalga oshirish san’ati va amaliyoti.
3	Israel Kirzner	Tadbirkorlik - bozor notengliklaridan foydalanib, yangi imkoniyatlar yaratish va ulardan foyda olish jarayoni.
4	Frank Knight	Tadbirkorlik - noaniqlik sharoitida qarorlar qabul qilish va xavfni o‘z zimmasiga olish faoliyati.

5	M.R. Boltaboyev	Kichik biznes - cheklangan resurslar asosida iqtisodiy faoliyat yurituvchi, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashuvchi subyektlar majmuasi.
6	M.K. Pardayev	Tadbirkorlik - bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydalanish va mulkchilik shakllarining erkin rivojlanishi asosidir.

Har bir iqtisodiy taraqqiyot bosqichida tadbirkorlik va kichik biznes tushunchalari turli yondashuv va ta'riflarda ifoda etilgan. Mazkur tadqiqotda tadbirkorlik va kichik biznes atamalarining shakllanish va rivojlanish jarayoni ilmiy asosda ushbu jadvalda tahlil qilindi (2-jadval).

Kichik biznesning asosiy muammolaridan yana biri — resurslar taqchilligi sharoitida faoliyat olib borishdir. Mehnat bozoridagi mintaqaviy va tarmoqlar kesimidagi nomutanosibliklar, ishchi kuchining kam harakatchanligi va malaka darajasining pastligi kichik korxonalar samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, bilimli marketologlar va iqtisodchilarning yetishmasligi kichik tadbirkorlikning rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi.

Axborot resurslarining tarqoqligi va sifat jihatidan yetarli emasligi ham kichik biznes uchun jiddiy to'siq bo'lib qolmoqda. Kichik tadbirkorlar axborot manbalari sifatida ko'pincha shaxsiy aloqalar, matbuot va reklama orqali shakllangan ma'lumotlar bazasidan foydalanadilar, bu esa raqobatbardosh qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va tadbirkorlik iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, globallashtirish sharoitida ushbu sohaning rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ichki bozorda raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida yangi biznes sub'ektlari soni ortib bormoqda. Biroq moliyaviy resurslarning cheklanganligi, malakali kadrlar yetishmasligi hamda axborot resurslaridan foydalanishdagi muammolar kichik biznes rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish va tadbirkorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Kichik biznesni samarali rivojlantirish mamlakat iqtisodiy o'sishini jadallashtirish va aholining turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish va iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlari sharoitida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ushbu soha iqtisodiy faolligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda raqobat muhitini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qulay huquqiy va institutsional muhit yaratilmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, moliyaviy ko'mak va tashkiliy mexanizmlar ushbu sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Kelgusida kichik biznes sub'ektlarining innovatsion faoliyatini kengaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish mumkin bo'ladi. Shu sababli, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Bank Group. (2020). *Small and Medium Enterprises (SMEs)* <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance>
2. Schumpeter, J. A. (2012). *Capitalism, Socialism and Democracy*. London: Routledge. Drucker, P. F. (1985). Knight, F. H. (2006). *Risk, Uncertainty and Profit*. New York: Dover Publications.
3. Boltaboyev, M. R. (2015). *Tadbirkorlik asoslari: Nazariya va amaliyot*. Toshkent: Iqtisodiyot.
4. Pardayev, M. K. (2016). *Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning innovatsion asoslari*. Samarqand: SamDCHTI.
5. Nasridinovna, T. O. (2026). Organizational and economic aspects of sustainable development of women's entrepreneurship. *Shokh library*, 1(1).
6. Nasridinovna, T. O. (2026). Competitiveness factors and effective management mechanisms of tourist business. *Shokh library*, 1(1).